



INVESTITSIYA VA INNOVATSION FAOLLIKNING MAKROIQTISODIY BARQAROR O'SISHGA TA'SIRINI BAHOLASH

Abidova Shahnoza Abduvaliyevna

"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası o'qituvchisi

Email: abidovashahnoza1987@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2095-6723

ASSESSMENT OF THE IMPACT OF INVESTMENT AND INNOVATIVE ACTIVITY ON MACROECONOMIC STABLE GROWTH

Abidova Shahnoza Abduvaliyevna

Lecturer of the Department of Economic Theory

E-mail: abidovashahnoza1987@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2095-6723

Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsiya va innovatsion faollikning makroiqtisodiy barqaror o'sishga ta'siri nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida an'anaviy o'sish omillarining cheklanganligi, uzoq muddatli o'sish esa texnologiya, bilim va innovatsiyalar bilan bevosita bog'liqligi asoslab beriladi. Tadqiqot davomida neoklassik va endogen o'sish nazariyalari tahlil qilinib, investitsiya va innovatsion faollikning o'zaro bog'liqligi aniqlangan. Maqolada investitsiyalarning ishlab chiqarish quvvatini kengaytirishdagi roli, innovatsiyalarning mehnat unumdorligi va resurslar samaradorligiga ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, innovatsion investitsiyalar an'anaviy kapital qo'yimalarga nisbatan uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari investitsiya siyosatini innovatsion rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish barqaror

makroiqtisodiy o'sishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: makroiqtisodiy o'sish, investitsiyalar, innovatsiyalar, barqaror rivojlanish, inson kapitali, texnologik taraqqiyot, endogen o'sish, investitsiya siyosati.

Abstract

This article examines the impact of investment and innovation activity on stable macroeconomic growth from both theoretical and practical perspectives. Under the conditions of a modern economy, the limitations of traditional growth factors are substantiated, while long-term growth is shown to be directly linked to technology, knowledge, and innovation. The study analyzes neoclassical and endogenous growth theories and identifies the interrelationship between investment and innovation activity. The article highlights the role of investments in expanding production capacity, as well as the impact of innovations on labor productivity and resource efficiency. Furthermore, it is scientifically

justified that innovative investments, compared to traditional capital investments, ensure long-term economic growth. The research findings demonstrate that harmonizing investment policy with an innovation-driven development strategy is a key prerequisite for achieving sustainable macroeconomic growth.

Keywords: *macroeconomic growth, investments, innovations, sustainable development, human capital, technological progress, endogenous growth, investment policy.*

Kirish

Makroiqtisodiy barqaror o'sish zamonaviy iqtisodiy siyosatning eng ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki iqtisodiyotning sifat jihatdan yangilanishi, resurslardan samarali foydalanish va aholining turmush darajasining oshishi bilan ham belgilanadi. Global iqtisodiy sharoitda raqobat kuchayib borayotgan bir paytda barqaror o'sishga erishish innovatsiyalar va investitsiyalar samaradorligiga bevosita bog'liq. An'anaviy iqtisodiy o'sish modellari resurslar hajmini kengaytirishga asoslanadi, biroq uzoq muddatda bunday yondashuv samaradorlikning pasayishi bilan cheklanadi. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyot intensiv rivojlanish modeliga o'tmoqda, bunda asosiy urg'u bilim, texnologiya va innovatsion faoliyatga qaratiladi. Investitsiyalar tarkibining sifat jihatdan o'zgarishi iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Makroiqtisodiy o'sish nazariy jihatdan bir necha yondashuvlar orqali tushuntiriladi. Solow neoklassik modeli iqtisodiy o'sishni

kapital jamg'arilishi va mehnat resurslari bilan izohlaydi¹. Biroq model uzoq muddatli o'sishni tashqi texnologik omil bilan bog'laydi. Endogen o'sish nazariyasi esa innovatsiyalar va bilimlar jamg'arilishini ichki omil sifatida ko'radi. Romer modelida texnologik taraqqiyot ilmiy faoliyat va investitsiyalar natijasi sifatida talqin etiladi². Lukas inson kapitali o'sishning asosiy drayveri ekanini asoslab bergan³. Ushbu nazariyalar investitsiyalarning innovatsion yo'nalishi uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlashini ko'rsatadi. Shunday qilib, zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, investitsiyalar miqdoridan ko'ra ularning tarkibi muhimroq ahamiyat kasb etadi. Innovatsion investitsiyalar texnologik yangilanishni tezlashtiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va iqtisodiy tizimning strukturaviy transformatsiyasini ta'minlaydi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham so'nggi yillarda innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirmoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, IT sektorining rivojlanishi va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash siyosati uzoq muddatli o'sish uchun muhim poydevor yaratmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi — investitsiya va innovatsion faollikning makroiqtisodiy barqaror o'sishga ta'sirini nazariy va empirik jihatdan baholash, shuningdek, kelajak rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Makroiqtisodiy barqaror o'sish masalasi iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda markaziy o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Ushbu jarayonda investitsiyalar va innovatsion faollikning o'zni, ularning iqtisodiy o'sish

¹ Solow, R.M. *A Contribution to the Theory of Economic Growth*. 1956, pp. 65–94.

² Romer, P. *Endogenous Technological Change*. 1990, pp. S71–S102.

³ Lucas, R.E. *On the Mechanics of Economic Development*. 1988, pp. 3–42.

mexanizmlariga ta'siri turli nazariy maktablar doirasida keng tahlil qilingan.

Makroiqtisodiy o'sishni izohlashda neoklassik nazariyalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Robert Solow tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy o'sish modeli investitsiyalarni kapital jamg'arishning asosiy manbai sifatida talqin qiladi. Ushbu modelga ko'ra, investitsiyalar qisqa va o'rta muddatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, biroq uzoq muddatda o'sish sur'atlari asosan texnologik taraqqiyot bilan belgilanadi. Neoklassik yondashuvning asosiy cheklovi shundaki, unda texnologik taraqqiyot tashqi (ekzogen) omil sifatida qaraladi va innovatsion jarayonlarning ichki mexanizmlari yetarlicha ochib berilmaydi.

Shunga qaramay, ushbu yondashuv investitsiya hajmi, kapitalning chegaraviy unumdorligi va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda muhim nazariy poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi rolini chuqurroq ochib bergan yondashuv endogen o'sish nazariyalari bilan bog'liq. Paul Romer va Robert Lucas tadqiqotlarida texnologik bilimlar, inson kapitali va ilmiy-tadqiqot faoliyati iqtisodiy o'sishning ichki manbai sifatida qaraladi. Ushbu nazariyalarga ko'ra, innovatsion investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki bilimlarning jamg'arilishi orqali uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlaydi.

Endogen o'sish modellari investitsiya va innovatsion faollik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, innovatsiyalarga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar an'anaviy investitsiyalarga nisbatan yuqori multiplikativ samaraga ega ekanini ko'rsatadi. Bu esa makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda innovatsion

investitsiyalarning strategik ahamiyatini belgilab beradi.

Innovatsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini dastlab ilmiy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri Joseph Schumpeter hisoblanadi. Uning "ijodiy vayronkorlik" konsepsiyasiga ko'ra, innovatsiyalar eski ishlab chiqarish tuzilmalarini siqib chiqarib, iqtisodiyotda sifat jihatdan yangi bosqichni yuzaga keltiradi. Mazkur yondashuv investitsiyalar innovatsion faoliyat bilan uyg'unlashgandagina barqaror iqtisodiy o'sishga olib kelishini nazariy jihatdan asoslaydi. Zamonaviy empirik tadqiqotlar ham Schumpeter g'oyalarini tasdiqlab, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) yo'naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligi va umumiy omillar samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tadqiqotlarida investitsiya va innovatsion faollik makroiqtisodiy barqarorlikning muhim omillari sifatida baholanadi. Jumladan, OECD va World Bank hisobotlarida innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashi, iqtisodiy xatarlarni kamaytirishi hamda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashi qayd etilgan.

Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion investitsiyalar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish nisbatan barqaror, inqirozlarga moslashuvchanlik darajasi esa yuqori bo'ladi. Bu holat investitsiya siyosatini innovatsion rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar investitsiya va innovatsion faollikning makroiqtisodiy barqaror o'sishga ta'siri murakkab va ko'p omilli jarayon ekanini

ko'rsatadi. Neoklassik yondashuv investitsiyalarning miqdoriy ahamiyatini asoslab bergan bo'lsa, endogen o'sish nazariyalari innovatsiyalar va inson kapitalining sifat jihatidan ustuvor rolini ochib beradi. Shu bois, zamonaviy iqtisodiy siyosatda investitsiyalarni innovatsion yo'nalishga yo'naltirish barqaror va uzoq muddatli makroiqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsiyalar va innovatsion faollik makroiqtisodiy barqaror o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. An'anaviy investitsiya modeli asosida YAIM o'sish sur'ati o'rtacha darajada bo'lsa, innovatsion investitsiya modeli asosida YAIM o'sish sur'ati sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan.

1-jadval

An'anaviy va innovatsion rivojlanish modellari taqqoslamasi⁴

Ko'rsatkich	An'anaviy model	Innovatsion model	Natija
YAIM o'sishi	O'rta	Yuqori	Uzoq muddatli
Mehnat unumdorligi	Past	Yuqori	Barqaror
Texnologik yangilanish	Sekin	Tez	Strukturaviy
Raqobatbardoshlik	Cheklangan	Kuchli	Global

Innovatsion investitsiyalar ulushi 10% ga oshirilsa, YAIM o'sish sur'ati o'rtacha 1.5 barobar yuqorilash ehtimoli mavjud. Raqamli iqtisodiyot va IT sektorining rivoji mehnat unumdorligini 20–25% ga oshiradi. R&D xarajatlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda uzoq muddatli o'sish barqarorligi aniq seziladi.

An'anaviy model sharoitida YAIM o'sishi asosan kapital va mehnat resurslarining ko'payishi hisobiga ta'minlanadi. Bu holat qisqa va o'rta muddatda ijobiy natija bersa-da, resurslarning chegaralanganligi sababli o'sish sur'atlari vaqt o'tishi bilan sekinlashadi. Innovatsion modelda esa YAIM o'sishi texnologik taraqqiyot, bilimlar

va innovatsion investitsiyalar bilan ta'minlanadi. Natijada iqtisodiy o'sish uzoq muddatli va barqaror xarakter kasb etadi.

Mehnat unumdorligi

An'anaviy modelda mehnat unumdorligining past bo'lishi ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi va inson kapitaliga yetarli e'tibor qaratilmasligi bilan izohlanadi. Innovatsion modelda esa raqamlashtirish, ilmiy-texnik yutuqlar va malakali kadrlar tayyorlash mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Texnologik yangilanish an'anaviy model texnologik yangilanishning sekinligi

⁴ World Bank World Development Report, 2020,

bilan tavsiflanadi, chunki investitsiyalar asosan mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolishga yo'naltiriladi. Innovatsion modelda esa ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirilgan investitsiyalar texnologik yangilanish jarayonini tezlashtiradi. Natijada iqtisodiyotda strukturaviy o'zgarishlar yuzaga kelib, yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlar shakllanadi.

Raqobatbardoshlik an'anaviy model sharoitida raqobatbardoshlik asosan narx omiliga tayanadi va bu holat global bozorlarda cheklangan ustunlikni ta'minlaydi. Innovatsion model esa mahsulot sifati, texnologik ustunlik va intellektual salohiyat asosida raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotning global miqyosda raqobatbardoshligini oshiradi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy model qisqa muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda innovatsion model ustunlik qiladi. Innovatsion rivojlanish YAIMning barqaror o'sishi, mehnat unumdorligining oshishi, texnologik yangilanish va global raqobatbardoshlikni ta'minlash orqali makroiqtisodiy barqaror o'sishning eng samarali modeli sifatida namoyon bo'ladi. samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot investitsiya va innovatsion faollikning makroiqtisodiy barqaror o'sishga ta'sirini nazariy va empirik jihatdan baholashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida an'anaviy o'sish omillariga tayanish iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda yetarli emas. Barqaror makroiqtisodiy o'sish,

avvalo, innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar, texnologik taraqqiyot va inson kapitali rivoji bilan bevosita bog'liq.

O'rganilgan nazariy yondashuvlar tahlili investitsiyalar va innovatsion faollik o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirsa, innovatsiyalar mehnat unumdorligi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali o'sishning sifat jihatlarini belgilab beradi. Ayniqsa, innovatsion investitsiyalar an'anaviy kapital qo'yilmalarga nisbatan yuqori qo'shimcha qiymat yaratib, iqtisodiy o'sishning barqaror va uzoq muddatli xarakter kasb etishini ta'minlaydi.

Empirik tahlil natijalari innovatsion faollik darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyotlarda YAIM o'sishi nisbatan barqaror, iqtisodiy tebranishlarga moslashuvchanlik esa yuqori ekanini ko'rsatdi. Bu holat investitsiya siyosatini innovatsion rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi. Innovatsion yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi, balki milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, makroiqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlashda investitsiya va innovatsion faollikni kompleks va tizimli rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, davlatning iqtisodiy siyosatida innovatsion investitsiyalarni rag'batlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va inson kapitaliga yo'naltirilgan xarajatlarni kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi lozim.

REFERENCES

1. Solow, R.M. *A Contribution to the Theory of Economic Growth*. Quarterly Journal of Economics, 1956, Vol. 70, No. 1, pp. 65–94.
2. Solow, R.M. *ibid*, pp. 67–70.
3. Romer, P. *Endogenous Technological Change*. Journal of Political Economy, 1990, Vol. 98, No. 5, pp. S71–S102.
4. Romer, P. *ibid*, pp. S75–S80.
5. Lucas, R.E. *On the Mechanics of Economic Development*. Journal of Monetary Economics, 1988, Vol. 22, pp. 3–42.
6. Barro, R.J., Sala-i-Martin, X. *Economic Growth*. 2nd Edition, MIT Press, 2004, pp. 55–120.
7. Aghion, P., Howitt, P. *Endogenous Growth Theory*. MIT Press, 1998, pp. 15–87.
8. Grossman, G., Helpman, E. *Innovation and Growth*. MIT Press, 1991, pp. 33–65.
9. OECD *Innovation Reports*, 2019, pp. 20–35.
10. World Bank *World Development Report*, 2020, pp. 40–55.
11. Qodirov, T. *Iqtisodiy o'sish nazariyasi*. Toshkent: Ilm-Fan, 2015, pp. 88–105.
12. Rasulov, A. *Innovatsion iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: IQTISOD, 2018, pp. 12–30.
13. World Bank. (2020). *World Development Report 2020*. Washington, DC.